

## FRANSUZ TILIDAN INGLIZ TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLAR URG'USI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

**Soxibov Sardor**

O'zMU, Xorijiy Filologiya Fakulteti

Amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik kafedrasи o'qituvchisi

Zamonaviy ingliz tilida fransuz tilidan o'zlashgan so'zlar urg'usi bir qancha tadqiqotchi olimlar tomonidan shubha bilan german tillari urg'usiga o'xhash deb hisoblab kelingan. Bu juda chuqur xulosa. O. Jesperson ingliz tilidagi so'nggi bo'g'ini urg'u olgan ko'plab so'zlarning masalan "*begin, forget*" kabi so'zlar mavjudligi sababli bu fikrga qo'shilmaydi va o'zining bir qancha tushunchalarini bayon etadi. Van Draat ham bu masalaga e'tibor qaratadi va uning bir qismini to'g'ri deb bilgan holda, eski qarashlarni tugallanmagan, mukammal emas deb izohlaydi. Tomson ham o'rta asr oxiri ingliz she'riyatidagi bir-biridan farqlanadigan urg'ularning uchrashini o'rgangan holda bir qancha qoidalar yaratib, bu qarashlarga xulosa yasashga urinib ko'rgan.

Qadim-qadimdan german tillaridagi lotin tilidan o'zlashgan so'zları (masalan, ko'pchilikka taniqli bo'lган so'zlar) german tillaridagi so'zlarning urg'u olish qoidasiga ko'ra va ularni meros qilib olgan hoda birinchi bo'g'in urg'usini olgan holda ko'chgan deb xulosa qilish to'g'ri bo'lmaydi, chunki eski lotin tilida kuchli birinchi bo'g'in urg'usi bo'lган va biz uning keyinchalik german tillaridagi o'zlashgan so'zlar xususiyatlarda u qanday rol o'ynaganini bilmaymiz. Bizga shu narsa ma'lumki, vulgar lotin shevalari keyingi davrlarda birinchi bo'gin urg'usiga amal qilib kelingan va u turg'un bo'lган.

German tillaridagi urg'u sezilarli darajada turg'un hisoblanadi. Asl german tilariga oid so'zlarda berilgan so'zda ur'gu ma'lum bir joyda qo'llangan bo'lsa, u boshqa bo'g'indarga ko'chmaydi. Masalan:

***'cathedra:ca'thedra 'integrum:in'tegrum 'spiritum:spi'ritum***

Bu kabi urg'u qo'llanishi german tillarida sodir bo'lmaydi. Biror so'z istalgan tildan o'zlashganidan so'ng biror biro limning uni o'zlashgan so'z sifatida qaramasligiga ishonish juda qiyin.

German tillaridagi o'zlashgan so'zlarning urg'uni birinchi bo'g'inga tushishida umumiyligi urg'u ko'chishining bo'lishi shubha ostida. Bu ko'proq nutqda muomulada bo'lган so'zlarning o'z urg'usining saqlab qolishiga o'xshaydi. Keyinchalik jamiyatning turli tabaqa-qaatlamlarida avlodlar tomonidan foydalanilgan "*machine*", "*bouquet*" kabi so'zlarda urg'u ko'chishi kuzatilmagan va hali ham so'nggi paytlarda

o‘zlashgan “*chauffeur*” va “*garage*” kabi so‘zlar “*driver*”, “*butler*”, “*carriage*” so‘zlariga o‘xshab birinchi bo‘g‘in urg‘usiga ega. Albatta, “*decadent*” kabi so‘zlardagi ikkilanish ularning yanada chuqurroq o‘rganilishini talab qiladi. Biroq, bu jarayonlarni o‘rganish orqali german tillariga xos bo‘lgan urg‘u mavjud bo‘lgan urg‘u qonuniyatiga ko‘ra o‘zgarmaganini kuzatish mumkin.

O. Jesperson va Van Draat tomonidan taklif etilgan german tillariga oid ibora ritmi mahalliy tildagi so‘zlarga mos kelmagani tufayli o‘zlashgan so‘zlarning biror urg‘u qoidasiga asos bo‘la olmaydi. Ingliz tilidagi ibora ritmi har doim kamida o‘rta ingliz davridan buyon so‘zlar tanlovi yoki so‘z tartibi masalasi sifatida qaralgan; shuning uchun badiiy asarlarda yoki she’riyatda ma’lum bir so‘z mos tushish o‘rniga ko‘ra ma’lum bir joyga, o‘ringa joylashtirilgan, ammo so‘zning urg‘usi uning joylashuvidan qat’iy nazar o‘z o‘rnida qolgan. O‘rta ingliz davri she’riyatida urg‘uning qo‘llanishi keyinroq ko‘rib chiqildi.

Bu muammoning o‘rta ingliz davri bo‘yicha dastlabki tadqiqot shuni ko‘rsatdiki:

- a) 13-asr o‘rtalaridan oldin fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘rta ingliz davrida aytarli miqdorda bo‘lmagan, uchramagan.
- b) Hozirgi urg‘u qonuniyati o‘rta ingliz davrida yuz bergan unlilarning birinchi ko‘chishi yuz berishidan oldin 14-asr boshlarida “*counsel*” so‘ziga o‘xshab urg‘uli unlilarning to‘liq o‘zgarishiga ega bo‘lgan so‘zlarda amal qilgan.
- c) O‘rta ingliz davri yozuvchilari, shoirlari foydalangan urg‘u unlilarning o‘zgarishi, rivojlanishi haqida to‘g‘ri ma’lumot bera olmaydi.
- d) Bugungi kunda ko‘plab fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlar birinchi bo‘gin urg‘usiga ega emas.

Keling, bu fikrlarni va ularning nimalarni anglatishini sinchkovlik bilan ko‘zdan kechiramiz.

Fransuz tilidagi so‘zlarning 13-asrda aytarli miqdorda uchramagani urg‘uning mutlaqo boshqa joyga ko‘chirilishidek katta o‘zgarishga ko‘p vaqt ketishiga qarshi chiqadi va Gramley ta’kidlaganidek - “Biz faqatgina urg‘uli unlilarga ta’sir qilgan unlilar ko‘chishining birinchi ishora xususiyatlarini aniqlar ekanmiz, bu jarayon anchagina izchillik bilan 14-asr o‘rtalarigacha tugallangan bo‘lsa kerak. Bir asr bunday o‘zgarish uchun yetarli emas.”<sup>23</sup> Bu kabi taxminlar asta-sekinlik bilan o‘z tasdig‘ini topib bordi.

Bundan tashqari, fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zning ingliz tilidagi aniq bir sanadagi biror hujjatda uchrashi uning aynan shu sanada bundan hali xabari yo‘q

<sup>23</sup> Stephan Gramley. The Vocabulary of World English. Arnold: London, 2001.p-7.

bo‘lgan odamlar orasida bo‘lganini bildirmaydi ya’ni bu haqida hech qanday aniq bir ma’lumot bermaydi. Boshqa tomondan hujjatlarda yozilgan va uchraydigan fonetik o‘zgarishlar so‘zning amalda muomulada bo‘lganligini ifodalaydi. Zeroki, fonetik o‘zgarishlar odatda eng quyi ijtimoiy tartibda boshlanadi va yozuvda amalga kirguniga qadar juda uzoq vaqt talab qilinadi.

Qiyosiy jihatdan ko‘plab fransuz tili so‘zlari ular nutqda muomulaga kirgunlariga qaraganda vaqtliroq yozma manba'larda, hujjatlarda uchragandek tuyuladi, chunki garchand ko‘pchilik odamlarning ikki tilini bilishi juda ishonchsiz tuyulsada, o‘rta asrlarda Angliyada yozish ishlaridan xabardor bo‘lgan, zodagon va rasmiylar bilan aloqada bo‘lgan kishilar ham bor bo‘lgan. Shuning uchun ko‘pchilik hujjatlarni hisobga olgan holda fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlarni ular muomulaga kirgan sanasi bilan ya’ni og‘zaki nutqda ishlatilishi bilanoq yozuvda ham amalga kirgan deb xulosa qilish mumkin.

O‘rta ingliz davridagi yozuvchi va shoirlarning fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlarda urg‘udan foydalanishi faqatgina she’riy qonuniyatarga bo‘ysungan va asoslangan. G. Chaucer va undan keyingi yozuvchilar tomonidan ham foydalanilgan urg‘ular haqiqatga yaqin deyilishiga hech bir asos yo‘q. Ular foydalangan urg‘u qonuniyatları amalda keng muomulada bo‘lmagan. Boshqa tomondan o‘rta ingliz davri yozuvchilari fransuz she’riyatidagi bir qancha so‘zlarda erkin urg‘udan foydalanishgan. Zamonaviy fransuz she’riy qonuniyatlarini muhokama qilish befoyda, chunki biz G. Chaucer yoki Langland kabi yozuvchilarning bu narsalarni hayolidan o‘tkazganiga, e’tibor bergeniga asosimiz yo‘q. Ular ingliz she’rlarini qanday qonuniyatarga asosan o‘qigan bo‘lsa, fransuz tilidagilarni ham shunday o‘qigan bo‘lsa kerak. Bunday misollar juda ko‘p va bu fikrga ortiqcha urg‘u berish shart emasligi aniq. O‘rta ingliz davri yozuvchi va shoirlari fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlarda urg‘udan erkin tarzda foydalangan va bunda ular fransuz yozuvchilarining urg‘uni qayerda ishlatgan deb o‘ylasa yoki tushunsa urg‘uni o‘sha yerda qo’llash kerak deb hisoblashgan. Shuning uchun ulardan foydalanish ularning asl, haqiqiy so‘zlarning urg‘u qonuniyatlaridan ajralib qolgan va ular keyingi muhim o‘zgarishlar uchun asos bo‘lmaydi.

Anglo-fransuz tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning kattagina qismi ingliz tilida birinchi bo‘g‘inga qaraganda boshqa bo‘g‘inlarda urg‘u olishi tushuntirib o‘tilishi kerak. Ularni ikki sinfga ajratish mumkin:

- 1) German tillaridan o‘zlashgan birinchi bo‘g‘in urg‘usiga amal qilmaydigan, qonuniyatlardan foydalanish imkonini beruvchi, asosan qo‘shma so‘zlar va ular tomonidan ta’sirga uchragan boshqa so‘zlar.

2) German tillari urg‘u qonuniyatlariga umuman mos bo‘lmagan va shuning uchun ba’zi bir fransuz tili fenomenlari yoki fransuz tilida so‘zlashmaydigan aholi tomonidan ta’sirga uchragan so‘zlar.

Ingliz tilida fe’l vazifasini bajaruvchi qo‘shma so‘zlar sifatida qo‘llaniluvchi yoki biz shunga o‘xhash usulda tadqiq qiladigan so‘zlar haqida osongina xulosa qilish mumkin. Hech bir nazariy ma’lumotda ularning birinchi bo‘ginda urg‘u olishi haqida ma’lumot berilmagan. Bu holat qo‘shma so‘z elementining bir xil usulda foydalanganligi yoki boshqa qo‘shma so‘zlarda tez-tez uchraganligini anglatuvchi holat hisoblangani uchun ham “receive”, “deceive” kabi tuzilishga ega bo‘lgan so‘zlarning tabiatini, urg‘u olish xususiyatlari oson va aniq tushunilishi mumkin bo‘ladi.

Biz bu yerda ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘limlarga ajrata olmaymiz, chunki birinchidan, bir qancha so‘zlar qo‘shma so‘zlar hisoblansada, birinchi bo‘g‘in urg‘usiga ega. Masalan:

*'ensign' profit                          'purchase    'purpose*

Ikkinchidan, ingliz tilidagi ot va fe’lllik xususiyatiga ega qo‘shma so‘zlar o‘rtasidagi farq to‘liq o‘rganilmagan. Masalan:

*'purchase – ot va fe 'l  
es'cape – ot va fe 'l*

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi o‘zlashgan so‘zlar va ularning urg‘u xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida har bir so‘zning qaysi davrda kirib kelishidan boshlab, shu davrga amaldagi ingliz tilining ichki qonuniyatları va so‘zlarning qo‘llanish tamoyillariga bog‘liq holda rivojlanib, o‘ziga xos talaffuzga, morfologik qo‘llanishga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin. Bunday so‘zlarning hammasini biror umumiyl qonuniyat asosida birlashtirish va tartibga solish mumkin bo‘lsada, bir qancha so‘zlar ularning grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘rganuvchilar uchun kichik sinflarga ajratish va ularning talaffuzini oldindan taxmin qilish imkonini beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Stephan Gramley. The Vocabulary of World English. Arnold: London, 2001.
2. Einar Haugen. The analysis of linguistic borrowing. Language. 1950.
3. E. Fudge. English Word Stress. London: Arnold, 1984.